

TOSHKENT VILOYATI BOLALAR O'LMIDA IJTIMOYIY SOHALAR TIZIMINING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Jaloliddinov Nizomiddin Xusniddinovich
O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası
tayanch doktoranti

Ijtimoiy sohalar tizimi juda keng qamrovli bo'lib, u o'z ichiga ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan va madaniyat, sport kabi ko'plab soha va yo'nalishlarni qamrab oladi. Iqtisodiyot sohasi mamlakatning moliyaviy hamda ishlab chiqarish yo'nalishiga xizmat qilsa, ijtimoiy sohalar jamiyatni ma'naviy va ma'rifiy, ilmiy hamda aholi salomatligi nuqtai nazardan yuksalishiga xizmat qiladi. Yurtimiz mustaqillika erishgan kundan boshlab, mamlakatimizda ijtimoiy sohalarga alohida e'tibor qaratilayotgani hech kimga sir emas.

O'zbekistonda ijtimoiy soha muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir isboti shundan iboratki, taraqqiyotning o'zbek modelidagi besh tamoyillardan biri aynan ijtimoiy sohaga bag'ishlangan bo'lib u ham bo'lsa "kuchli ijtimoiy siyosat", deb nomlanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, davlat taraqqiyotida ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratilishi davlat rivojlanish modelida alohida o'ringa ega. Ana shu tamoyil asosida mustaqillik yillarida yurtimizda ko'plab qonun va qarorlar qabul qilinib amaliyotga tatbiq etildi.

Ayniqsa, aholi salomatligi hamda aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga doir ishlar buning yorqin misoli bo'la oladi. So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan taraqqiyot strategiyasida ham aholini ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqillikka erishgach yangi davrga kirib borar ekanmiz, ko'plab sohalarda yangicha fikrlash hamda yangicha ishlash zamon talabiga aylandi. Ushbu tushuncha tibbiyot sohasini chetlab o'tmadi albatta.

Masalan, tibbiyot sohasida tug'ilish, tirik tug'ilganlik hamda o'limni qayd etish, xususan, bolalar tug'ilishi va o'limini hisobga olish tartibiga JSST normalari tatbiq etila boshlandi. Bu esa mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan meyyorlardan tubdan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralsa, mustaqillikning dastlabki yillarida hisobga olingan bolalar o'limi soni bilan JSST meyyorlari bo'yicha hisoblarda sezilarli tafovutlar yuzaga keladi.

Mustaqillik yillarida bolalar o'limi sezilarli darajada qisqargan bo'lsada, hali bu borada ko'plab rivojlangan davlatlardan ortda qolayotganimiz, bolalar o'limi, ayniqsa, go'daklar o'limi soni mamlakatimizda hali yuqori ekanligi ayni haqiqat. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida go'daklar o'limi ko'rsatkichlari anchagina past. Skandinaviya mamlakatlarida bu ko'rsatkich 4-5 promille bo'lsa, Yaponiyada u 3 promilleni tashkil etadi. Bolalar o'limining asosiy sabablari sifatida odatda endogen va ekzogen omillar ko'rsatiladi. Biroq bu masalaning boshqa tomoni ham mavjudki, u bolalar o'limi sabablarini hisobga olishda hech bir hujjatda qayd etilmaydi. Xususan, tibbiyot muassasalari, poliklinikalar hamda shifoxonalarning yetarli darajada ekanligi, shifoxonalarning zamonaviy tibbiy

uskunalar, aholi soni hamda turli vaziyatlarni hisobga olgan holda yetarlicha koykalar bilan ta'minlanganligi, malakali tibbiyot xodimlari hamda dori vositalari bilan ta'minlanganligi, aholi daromadi hamda ma'lumoti, atrof muhit bilan bog'liq muammolar, ish sharoitlari va shu kabilar masalaning boshqa tarafi hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganlarning bolalar o'limiga bevosita aloqasi bo'lmasligi mumkin, biroq ularga ko'rsatiladigan tibbiy hizmatlarning sifati, aholi daromadlari, ekologiya kabilar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot uchun, 2019 yilda viloyatda umumiy hisobda 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida 965 ta o'lim yuz bergan bo'lsa shundan deyarli teng yarmi oldini olish yoki davolash mumkin bo'lgan kasalliklar va holatlar tufayli yuzaga kelgan.

O'zbekistonda 1990-yillardan boshlab ijtimoiy sohalarda bolalar manfaatlarini ko'zlab kiritilgan davlat investitsiyalari yildan yilga ortib bordi. Bugungi kunda mamlakatimiz YAIMning 10 foizini ijtimoiy sohalar tizimiga ajratadi. Ushbu mablag'lar davlat byudjetining 55 foiziga to'g'ri keladi. Ijtimoiy sohalarga sarflanadigan yillik umumiy mablag'larning 78 foizdan ortiqrog'i bolalar manfaatlari yo'lida ajratiladi. Bundan tashqari, NNT lar, donor davlatlar, hayriya tashkilotlari hamda xususiy sektor tomonidan ham ijtimoiy sohalarga har yili mablag'lar ajratiladi. Xususan, Toshkent viloyatida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar so'nggi yillarda Respublika viloyatlari orasida (Toshkent shahridan tashqari) eng ko'pini tashkil etib, 2020-yilda ushbu raqam 1370,5 milliard so'mni tashkil qilgan[6].

Ajratilayotgan mablag'lar bolalarning ta'lim olishi, tibbiy hizmatlardan foydalanishi, ijtimoiy muhtoj oilalarda yashaydigan bolalarning moddiy ta'minoti va shu kabi boshqa bir qancha sohalarga yo'naltiriladi. Biroq shunga qaramasdan, bolalar o'limi ko'rsatkichlari davlat tomonidan ijtimoiy sohaga ajratilayotgan moddiy resurslarga mos ravishda kamaymayapti.

Toshkent viloyatining aksariyat hududlari yetarlicha toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganligi, tibbiyot xodimlariga tushadigan yuklamalar hajmining yanada ortishiga xizmat qiladi. Shuningdek viloyat bo'yicha ambulator poliklinikalar soni 499 (2010) dan 488 (2019) ga kamaygan, o'rta tibbiyot xodimlari soni 31011 (2010) nafardan 31490 (2019) nafarga oshgan, viloyat shifoxonalaridagi koykalar soni 9933 (2010) dan 10424 (2019) taga ortgan, viloyat aholisi 2585,9 ming kishi (2010) dan 2898,5 ming kishi (2019) ga yetgan (313 ming nafarga ko'paygan), shu bilan bir qatorda viloyatda tug'ilish koeffitsiyenti 20,8 promille (2010) bo'lgan bo'lsa, 21,9 (2019) va 22,3 (2020) ga ortgan[6]. Raqamlarda nomutanosibliklar mavjud. Ya'ni aholi soni ortishiga ularga tibbiy hizmat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari soni ortishi muvofiq emas.

Viloyatda 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinish darajasi 2020-yilda 23 foizni, 3-6 yoshli bolalarda esa 40 foizni tashkil qilgan bo'lib, Respublika miqyosida (Qashqadaryo, Surxondaryodan oldin) so'nggi pog'onalarni egallagan. Aytish joizki, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish darajasini oshirish ma'lum darajada ularda to'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf

etishda amaliy natija berish imkoniyatini oshirishi mumkin. Chunki, viloyatda 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning $\frac{3}{4}$ qismi minimal talab darajasida taomlanadi. Undan tashqari, 15 foizdan ortiqroq bolalar anemiyadan, 40 foiz atrofidagi bolalar temir moddasi yetishmovchiligidan aziyat chekadi.

Toshkent viloyati Respublikamizning boshqa viloyatlariga nisbatan ko'p jihatdan potentsiali yuqori bo'lgan hududlar sirasiga kirishini hisobga olsak, ushbu mintaqada bolalar o'limini oldini olishda ijtimoiy sohalar tizimini yetarlicha yo'lga qo'yish, istiqbolli loyihalar ishlab chiqib amaliyotga joriy etish imkoniyatlari ham yuqoridir. Viloyatning bir qancha shahar va tumanlari sanoatlashgan hududlardan iborat bo'lib, ularda ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda anchagina ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari yuqori baholanadi. Viloyatning Olmaliq, Angren, Bekobod, Chirchiq, Ohangaron, Nurafshon, Yangiyo'l, Zangiota kabi shahar va tumanlari ana shunday hududlar sirasiga kiradi.

Tegishli hududlar o'z iqtisodiy salohiyatlaridan kelib chiqqan holda joylardagi tibbiyot muassasalari qoshida zamon talablariga javob beradigan diagnostik uskunalar hamda malakali kadrlar bilan ta'minlangan perinatal markazlar tashkil etishlari, ularni zarur birlamchi dori darmonlar bilan ta'minlash ishlarini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Undan tashqari, joylardagi FXDYO lar yoki oila maslahat markazlari qoshida bo'lajak yosh ota onalar uchun o'quv kurslari tashkil etish, homiladorlikka tayyorlanayotgan juftliklarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish diagnostik markazlarini tashkil etish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, viloyatda bolalar o'limida ijtimoiy sohalar o'rni yuqori bo'lib mazkur muammoga yangicha yondashish talab etiladi. Bugungi kunda davlatimiz rahbari belgilab bergan yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lidan borar ekanmiz, har sohada bo'lgani kabi, ijtimoiy sohalar tizimida ham yangicha zamonaviy usullardan foydalanib, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rgangan holda, o'zimizga moslashtirib yo'lga qo'yishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar nuqtayi nazaridan aytadigan bo'lsak mamlakatimizda, xususan, Toshkent viloyatida bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlar talaygina. Birgina sog'liqni saqlash sohasining o'zida yo'lga qo'yiladigan yangi islohotlar ushbu yo'nalishda bir qancha ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya–Toshkent, 2011, 164 b*
2. *Антипова Е.А. Смертность населения и ее география. Продолжительность жизни населения. География населения, 15 b.*
3. *Bo'rieva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent- 2011., 84 b.*
4. *Салливан Дж.М и Н.К.Туреева, Младенческая и детская смертность, Изучение здоровья населения Узбекистана 2002 г, 88-90 b.*
5. *Tojiyeva Z.N, Do'smonov F.A. Demografiya –T.: <<Inovatsion*
6. www.stat.uz- O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi.
7. www.google.com- internet sayti.
8. www.worldometer.com- internet sayti.